

DIDRONONG FAOLIYATIDAGI IJTIMOYI MASALALAR

Qurbanboyeva Ro‘zaxon Kenjaboy qizi. Tdtr.u talabasi.

Davronov Ziyot Davronovich. Ilmiy raxbar.

:

‘zlar: Didro, insonparvarlik, hokimiyat, haq-huquqlar, materialist va ateist.

m Abstract: Until the end of his life, Diderot preached humanism and enlightenment, criticized the tyrants of power everywhere and announced a fight against them. Diderot is a materialist and an atheist in philosophy.

t

a Key words: Diderot, humanism, power, rights, materialist and atheist.

r Deni Didro (1713. 5. 10, Langr-1784. 31. 7, Parij) Fransiyaning Langr ghaharida o‘ziga to‘q hunarmand oilasida tug‘ildi. Denining otasi ikki o‘g‘ilni ham yetuk ma’lumotli qilib tarbiyalash maqsadida o‘sha vaqtgagi yagona o‘quv markazlaridan hisoblangan iezuitlar kollejida o‘qitadi. Bu kollejda asosan qadimgi tillar, tarix, oratorlik mahorati, adabiyot o‘qitlar edi. Didro 15 yoshga ~~Deitganlas Deitiganlaysa dengizdi. Sababisti dixerda o‘zini to‘la ma’lumotga, bilimga ega~~ qilish edi. Uning maqsadi ham zamonaviy bilim olib, hayot bilan yaqindan tanishish edi. Parijdagi D. Arkur kollejida joylashib grek, lotin tilini o‘rganishda davom etadi. Avvalida, matematika fani bilan qiziqmasa ham so‘ng matematika va boshqa fanlar bilan jiddiy shug‘ullanadi. O‘qishni tugatgandan so‘ng otasining maslahati bilan ikki yil davomida Langlik prokuroriga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. Lekin uni huquqiy sohalar unchalik qiziqtirmaydi. Bo‘s sh vaqtlarida ingliz tilini o‘rganishga kirishadi. Keyinroq, umuman, xizmat qilishdan bosh tortib, o‘z faoliyatini fanga bag‘ishlashga qaror qiladi. Bu qaror Denining otasiga yoqmasa ham unga ushbu masalani o‘ylab ko‘rishga muxlat beradi. Aslida otasining asosiy maqsadi o‘g‘lini ruhoniy qilib tarbiyalash edi. Denining fikricha inson kam

ta'minlangan bo'lsa ham, u erkin turmush tarziga ega bo'lishi kerak, shu bilan birga tashqi ta'sir, bo'ysunish emas balki, har bir kishi ichki qiziqishi, holatiga qarab hayotda yashashi lozim. 1733 yildan 1744 yillargacha, Didro o'z yo'lini topish maqsadida jiddiy shug'ullanadi. Shu yillar davomida turmush tarzini ta'minlash maqsadida turli o'quv yurtlarida onda-sonda berilgan soatlardan foydalananib dars berib yuradi. Chunki bu paytlarda uning otasi moddiy mablag' berishdan bosh tortgan edi. Deni mustaqil ish tutardi. Lekin shu davrlarda ham u falsafa, matematika, tarix, adabiyot tillarini o'rganishdan to'xtamadi. Natijada shu yillarda unda ensiklopedik aql-fan tashkilotchiligi xususiyatlari shakllandi. Uning falsafiy qarashlarining dastlabki davrlari 1740-45 yillarda to'g'ri keladi. 1745 yilda ingлиз axloqshunosi A. E. Sheftsberining asari («Issledovanie o dostoinstve i dobrodeteli»)ni tarjima qilish davriga to'g'ri keladi. Bu asar unga jiddiy ta'sir etgan edi. Asar izohlarida aytilgan fikrlar bo'lajak mutafakkir fikrlari edi. Unda Didro katolitsizmdan uzoqlashib, diniy fanatizmni jiddiy tanqid ostiga oladi.

Shundan so'ng, 1746 yilda anonim holda nashr etilgan «Falsafa fikrlari» (Filosofskie mo'sli)da xristianlik bilan to'la aloqani uzib materialistik g'oya bilan sug'orilgan deizm falsafasiga o'tadi. Shu yillarda Didro J. J. Russo, Kondilyak kabi yozuvchi va faylasuflar bilan tanishadi, munozara hamda suhbatlarda qatnashadi, o'zini, qiyinchilik, quvg'in va tanqidlargaga tayyorlaydi.

«Falsafiy fikrlar» hayot izini ko'rishi bilan parlament tomonidan kitob yoqib yuborishga qaror qilinadi. Uni oldindan sezgan Didro shu asarning o'zidayoq «muqaddas qutlug'lar»ning fikriga qarata aytilgan fikr va mulohazalardan yuz o'girsalar, ularga nisbatan yana yangi g'oyalar paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Ular, deydi u, Dekart, Monten, Lokk va Beylyasarni doimiy tanqid ostiga olgan ekanlar, meni ham shunday qiladilar. Meni ayblasalar, osongina qutuldik deyishlari mumkin, ammo unday bo'lmaydi, bilaman kelajakda menga o'xshaganlarni muhokama qilish davom etaveradi. Didroning bu fikrlarni aytishdan maqsadi iezuitlarni diniy sohada noto'g'ri yo'l tutganlarini isbotlab hamma dinlarni tengligini, shu bilan birga insonning borliq xudosining borligiga shubha qilishiga huquqi borligini talab etish edi. Hamma joyda aql, fahm, idrok

(razum) faoliyatga suyanish, jumladan dinda ham shunday qilish zarurdir. Ta'kidlash lozimki, Didro xristianlikni tanqid qilish davomida deizmni kamchiliklarini, salbiy tomonlarini ham ochaboradi. Natijada daxriylik tomoniga o'tadi. Daxriy materialist sifatida shakllana boshlaydi. Bu uning «Ojizlar to‘g‘risida xat» (Pismo o slepo‘x)ida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu paytlarda Fransiyada siyosiy vaziyat ancha keskinlashgan bo‘lib, Didroning bu faoliyati politsiyachilarga yoqmas edi. Dinga qarshi yozilgan asarlarni ro‘kach qilib 1749 yilda Didro qamoqqa tashlanadi. Lekin u nufuzli va ta’sirchan tanish-bilishlari orqali uch oydan so‘ng qamoqdan ozod qilinadi. Shundan so‘ng Deni Didro yigirma yildan ko‘proq umrini «Ensiklopediya yoki fan, san’at va kasb-hunar izohli lug‘ati»ga bag‘ishladi. U uning asoschisi, muharriri bo‘ldi. Bu ensiklopediya haqidagi g‘oya Didroda XVIII asrning 40-nchi yillarida paydo bo‘lgan edi. Chunki, ensiklopediya ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilishda xizmat qilishini birinchi bo‘lib sezgan edi. O‘z g‘oyasini amalga oshirish uchun tashkiliy ishlarda tinmay mehnat qilar ekan, yirik-yirik falsafiy asarlar yozishdan ham to‘xtamadi. Didroning mustaqil falsafiy fikrlarini shakllanishi daxriylik sohasiga o‘tish bilan bog‘liqdir. Chunki, bu yillarda u Aristotel, Platon, F. Bekon, R. J.Lokk, R. Dekart, B. Spinoza asarlarini chuqur o‘rganadi. «Ojizlar to‘g‘risidagi xat»dan boshlab «Fiziologiya elementlari» (1773 dan 1780 yillargacha davom etgan) gacha ko‘plab falsafiy muammolarni ishlab chiqdi. Bu o‘rinda «Tabiatni tushuntirishga oid fikrlar» (1754), «Jiyan ramo» (1762), «Dalamber bilan Didro suhbati» (17690, «Jak-Fatalist» (1773), «Materiya va harakatning falsafiy prinsiplari» (1770), «Ensiklopediya»da yozilgan masalalar va asarlarini misol qilib olish mumkin. Bu asarlarda va maqolalarda tahlil qilingan muammolar, Didroning buyuk mutafakkir bo‘lib yetishganligidan dalolat beradi. Butun umrining oxirigacha Didro insonparvarlik va ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilar ekan, barcha joylardagi hokimiyat tiranlar haq-huquqlarni va beadablikni (nevejestvo) tanqid qildi, ularga qarshi kurash e’lon qildi. Didro falsafada materialist va ateistdir. Shu o‘rinda Didroning turli asarlardan tarjima qilingan fikrlariga o‘quvchini diqqatini tortamiz. «Odamlar boshqa hech narsadan

qo‘rqmasliklariga ishonganlarida, - deydi u, - bu dunyoda ancha tinch yashagan bo‘lardilar: xudo yo‘q, degan fikr hali hech kimni dahshatga solmagan, lekin menga tasvirlab berishganlari xudoning mavjudligi haqidagi fikr qancha-qanchalarni vahimaga solmagan axir! » (Voronsov V.L.) «Tafakkur gulshani», Toshkent, 1981: «Qaerdaki xudoni tan olinsa, u yerda shaxsga sig‘inish mavjud, qaerda shaxsga sig‘inish mavjud ekan, u yerda axloqiy burch tartibotlari buziladi va axloq yuz tuban ketadi». (O‘sha kitob, 265 bet) «Dunyoning hech bir yeri yo‘qliki, u joyda diniy qarashlar o‘rtasidagi tafovut tuproqni qonga bulg‘amayotgan bo‘lsa » (O‘sha kitob, 267 bet). «Agar aqlni samoviy tuhfasi deb qarab, shu gapni din xususida aytak, u holda samo bizga o‘zaro kelisha olmaydigan va bir-biriga zid ikkita tuhfa yuborgan bo‘lib chiqadi. Bu anglashilmovchilikni to‘g‘rilash uchun din tabiatda mavjud bo‘lmagan xom-hayol bir prinsip ekanligini tan olish darkor» (O‘sha kitob, 272-bet).

Biz keltirgan ushbu fikrlarni Didroning materialistik va ateist bo‘lganligini isbotlash uchun keltirdik xolos. Didro XVIII asr mutafakkiridir. Uning fikrlarining barchasi ham abadiy emas, albatta. Davr o‘tishi, zamonning o‘zgarishi u yoki bu fikrni tasdiqlashi yoki tasdiqlamasligi mumkin. Ammo bu bilan Didroning eng murakkab siyosiy bo‘htonlar bo‘layotgan o‘sha davrlarda o‘zining mustaqil fikrlari bilan insonlarni lol qoldirishi haqiqiy tafakkur sohibining ishidir, degan xulosani olish mumkin. Didroning asarlarida tabiat va jamiyat inson faoliyatida uchraydigan dialektik jarayonlar o‘z aksini topgan. Ayniqsa jamiyatni boshqarishda «ma’rifatli» boshqarishni joriy etib, unda faylasuflarni burchi va vazifalari despotik boshqarishlarni mohiyatini boshqaruvchiga eslatib turguncha, murabbiylik qilishga chorlaydi. Chunki, o‘sha paytlardagi Amerikada bo‘lib o‘tgan 1775-1783 yillardagi revolyusiyalar «ma’rifatli davlat»lardagi kamchiliklar hali namoyon bo‘lmayotgan edi. Bu kamchiliklar D. Didroni demokratik tamoyillarni tahlil qilish va shaxsiy fikrlarni aytishga majbur qildi va uni chiniqtirdi. Ta’kidlash lozimki, fransuz ma’rifatparvarlari jumladan, Didroning harakatlari Rossiya madaniyati hayotiga ham ta’sir qildi.

Ma'lumki 1762 yilda Yekaterina II imператор kursisiga o'tirgandan so'ng u o'zini ma'rifatparvar hukmron podshoh sifatida ko'rsatish uchun ma'rifatparvarlar bilan xatlar orqali aloqa bog'lagan. U D. Didroni hurmat qilar edi. O'sha davrda yashab ijod etayotgan Volterni aloqasi esa Didronikidan yaxshiroq bo'lган. Fransiyada ma'rifatparvarlar quvg'inlikga uchraganlaridan so'ng Yekaterina II Didroni Rossiyaga taklif etadi. Ensiklopediyani chop etishga va'da beradi. Ammo, Didro Rossiyada o'tkir ma'lumotli harf teruvchilarni yo'qligini pesh qilgan holda taklifni inkor qiladi. Aslida uning asosiy sababi, Fransiyada yaqin yor-birodar va o'rtoqlarini, ma'naviy va ilmiy muhitni tashlab ketaolmaslik edi. Volter Didroni Rossiyaga borishini ko'p marotaba o'tinib so'raydi. Natijada Didro taklifni qabul qilib 1773 yilda Rossiyaga tashrif buyuradi. Rossiyada Yekaterina tomonidan Didro yaxshi kutib olinadi. Deyarlik har kuni Didro imператорitsa bilan ikki-uch soatlab baxslar va suhbatlar qiladi. Suhbatlarda Rossiya va dunyodagi mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, falsafiy muammolari ko'tariladi. Didro suhbatlarda monarxiya boshqaruvini ko'pgina sohalari bo'yicha takliflar beradi. Jumladan, konstitutsiyaviy monarxiyalı boshqaruvini, uni esa xalq tomonidan saylanishini, krepostnoylik huquqi, yerga feodallik xo'jayinlik sohalaridan voz kechish, qatlamlar huquqini tenglashtirish burjuaziya asosida iqtisodiyotni boshqarish kabilardir. Yekaterina ushbu takliflarni so'zda tasdiqlab xayrixohlik bildirsa ham bu takliflarni hayotga tatbiq etish tarafdori emas edi. Xalqni ma'rifatli qilishdek dolzarb taklif ham, oxiriga yetkazilib bajarilmagan edi.

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS S

Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинозхон Лазиз қизи.

РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE R

Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбой қизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING Т

■ Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Ҳайрулла Ўғли, & Ғанибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ҒУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and Social sciences, 3 (3), 16-21.

□ Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухоликов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ҶЕРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, Natural and social sciences, 3 (3), 41-46.

§ Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ҒАҲЛИЛИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 44–50.

S
C
I
E
N
C
E

A
N
D